


G.N.Isakova

Fransuz tilida fe'l so'z turkumi

**Fransuz tili grammatikasi fanidan o'quv-uslubiy
qo'llanma**



Toshkent-2013

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA
SPORT ISHLARI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA
MADANIYAT INSTITUTI

Tillar va adabiyot kafedracu

G.N.Isakova

Fransuz tilida fe’l so‘z turkumi

**Fransuz tilini o‘rganayotgan talabalar uchun fransuz tili
grammatikasi fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanma**

G. Isakova. Fransuz tilida fe'l so'z turkumi

Tillar va adabiyot kafedrası va TDSMI uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: **Go`zalxon Isakova**
Tillar va adabiyot kafedrası katta o`qituvchisi, f.f.n.

Taqrizchilar: **f.f.n., dotsent M.N.Nishonov**
O`zDJTU dotsenti

f.f.n., dotsent R.O.Jomonov
O`zDSMI dotsenti

Fransuz tilini o`rganayotgan talabalar uchun Fransuz tili grammatikasi fanidan o`quv uslubiy qo`llanma

SO‘Z BOSHI

Mazkur qo‘llanma fransuz tilini o‘rganayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan.

Ma‘lumki, fransuz tilida fe‘l zamonlarining yasalishi va ularning qo‘llanilishi ancha murakkab. Shu sababli, fransuz tilini o‘rganuvchi talabalar ularni hosil qilishda va gaplarda qo‘llanilishda birmuncha qiyinchiliklarga duch keladilar.

Ushbu qo‘llanmada talaba mazkur mavzu bo‘yicha o‘zi uchun zarur va foydali bo‘lgan ma‘lumotlarni oladi.

Qo‘llanma fe‘llar, ularning turlari, o‘ziga xos xususiyatlari, zamonlarning yasalishi va ularning moslashuviga oid asosiy qoidalarni o‘z ichiga oladi.

M U A L L I F

Fe'l (le verbe)

Predmetning ish-harakatini yoki holatini anglatib, zamon, mayl, nisbat, shaxs va son grammatik kategoriyalariga ega bo'lgan mustqil so'z turkumi **fe'l** deyiladi.

Bir o'zfkdan yasalgan fe'llar **tub fe'llar** hisoblanadi.

Masalan: lire, dire, prendre, etc.

Fransuz tilida so'z o'zagiga affiks (prefiks va suffikslar) qo'shish yo'li bilan hosil qilingan fe'llar **yasama fe'llar** deb yuritiladi.

Prefiks qo'shish yo'li bilan tub fe'ldan yasama fe'llar hosil qilinadi va yangi hosil qilingan fe'lning ma'nosi ham o'zgaradi.

Masalan: prendre – olmoq; apprendre – o'rganmoq;
 lire – o'qimoq; élire – saylamoq;

Ba'zi ot yoki sifatga suffiks qo'shish yo'li bilan yasama fe'llar hosil qilish mumkin.

Masalan: le travail – ish; travailler – ishlamoq;
 rouge – qizil; rougir – qizarmoq;

Fe'lning morfologik xarakteristikasi

O'timli - o'timsizlik, bo'lishli - bo'lishsizlik, zamon, mayl, nisbat, shaxs, son kabi grammatik kategoriyalar fe'lning o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi.

Shaxs (la personne) ish-harakat bajaruvchisining so'zlovchiga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi.

Son (le nombre) kategoriyasi fe'l formalari orqali eganing birlik yoki ko'plikda ekanligini ko'rsatadi.

Birlik		Ko'plik
I-shaxs	je marche	nous marchons
II- shaxs.	tu marches	vous marchez
III- shaxs.	il marche	ils marchent

Mayl (le mode) fe'ldan anglashilgan ish-harakatning voqelikka munosabatini anglatadi hamda ish-harakatning haqiqatan bajarilganini, bajarish haqida buyruqni, bajarilishi shart yoki bajarishga majbur ekanligini ifodalaydi:

Aniqlik mayli (Indicatif)	Buyruq mayli (Impératif)	Shat mayli (Conditionnel)	Istak mayli (Subjonctif)
Il marche.	Marchez!	Il marcherait.	Qu'il marche.
U yurib ketyapti	Yuring!	U yurardi.	Yursin.

Zamon (le temps) ma'nosi ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytga munosabatini ifodalaydi. Harakat so'zlanib turgan paytdan oldin, u bilan bir vaqtda yoki undan keyin bajarilishini ko'rsatadi.

Présent de l'indicatif	Passé composé	Futur simple
Elle chante.	Elle a chanté.	Elle chantera.
U kuylayapti.	U kuyladi.	U kuylaydi.

Nisbat (la voix) ish-harakatning bajaruvchisi (sub'ekti) bilan predmeti (ob'ekti) o'rtasidagi munosabatni ko'rsatadi.

Aniq nisbat (Voix active):

Le maitre explique cette règle.

O'qituvchi bu qoidani tushuntiryapti.

Majhul nisbat (Voix passif):

Cette règle est expliquée par le maitre.

Bu qoida o'qituvchi tomonidan tushuntiryapti.

O'zlik nisbat (Voix pronominale):

Je me lave à l'eau froide.

Men sovuq suvga yuvinyapman.

Fe'lning shaxsli va shaxssiz formalari

(Les formes personnelles et non personnelles du verbe)

Fe'l formalarining hammasi ham shaxs kategoriyasiga ega bo'lavermaydi, shunga ko'ra fe'lning shaxsli va shaxssiz formalari mavjuddir. Fe'llarning shaxsli formalari shaxsga ko'ra o'zgarib gapdagi kesim yoki ot kesimda bog'lovchi fe'l (verbe copule) vazifasini bajaradi:

Il travaille à l'usine.

U zavodda ishlaydi.

Il est écolier.

U o'quvchi.

Fe'llarning shaxssiz formalariga infinitiv (infinitif), sifatdoshlar (le participe présent, le participe passé, le participe passé composé) va ravishdosh (gérondif) lar kiradi.

Fe'llarning shaxssiz formalari shxslarga ko'ra o'zgarmaydi, ular gapda turli gap bo'laklari vazifasida kelishi mumkin:

Il pense partir (vositasiz to'ldiruvchi).

Je répète les règles étudiées (aniqlovchi).

Nous marchons en causant (hol).

O'timli va o'timsiz fe'llar

(Les verbes transitifs et intransitifs)

Fe'ldan anglashilgan harakatning predmetga (to'ldiruvchiga) munosabati fe'llardagi o'timlilik va o'timsizlikni tashkil etadi.

O'timli fe'llar – *prendre, lire, écrire, etc.*

O'timsiz fe'llar – *aller, venir, etc.*

Harakatning predmetga o'tganligini, tasir qilishini bildiradigan fe'llar o'timli fe'llar (verbes transitifs) deyiladi.

J'écris une lettre. Men xat yozyapman.

Biror predmetga bevosita o'tmaydigan harakatni anglatadigan fe'llar o'timsiz fe'llar (verbes intransitifs) deyiladi.

Il court vite. U tez yugirmoqda.

O'zbek tilida o'timli fe'ldan keyin qo'llangan otlar ko'pincha tushum kelishigida ifodalangan bo'ladi. Fransuz tilida kelishik bo'lmaganligi tufayli o'timli fe'ldan so'ng vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelgan ot yoki olmosh predlogsiz qo'llaniladi:

Nous aimons notre Patrie.

Fe'llarning o'timlilik yoki o'timsizlikgi ularning gapdagi mazmunidan anglashiladi:

Sortir (vt) un crayon. Qalamni chiqarmoq.

Sortir (vi) de la classe. Sinfдан chiqmoq.

Descendre (vt) la valise. Yukni tushirmoq.

Descendre (vi) du tram. Tramvaydan tushmoq.

Lugʻatlarda oʻtimli feʻllar **vt**, oʻtimsiz feʻllar **vi** belgilari bilan ifodalanadi:

Monter(vi)- chiqmoq. Il monte en autobus – U avtobusga chiqyapti.

Monter(vt)- chiqarmoq. Il monte une valise – U chamadonni chiqaryapti.

Feʻl guruhlari

Fransuz tilidagi feʻllar tuslanish turiga koʻra 3 guruhga boʻlinadi. Feʻllarning tuslanish turi quyidagicha aniqlanadi:

1. Noaniq formaning qoʻshimchasi orqali.

I guruhga **–er** qoʻshimchasi bilan tugagan feʻllar (parler) kiradi.

II guruhga **–ir** qoʻshimchasi bilan tugagan feʻllar (finir) kiradi.

III guruhga **–ir, –oir, –re** qoʻshimchalari bilan tugagan feʻllar (sortir) kiradi.

2. Aniq mayldagi hozirgi zamon (Présent de l'Indicatif) ning birlikdagi shaxs qoʻshimchalari orqali.

3. Feʻl negizining oʻzgarishi yoki oʻzgarmasligiga koʻra.

I guruh feʻllari

Fransuz tilida 1guruh feʻllari quyidagi belgilarga ega:

1. I guruh feʻllari noaniq formada **–er** qoʻshimchasi bilan tugagan boʻladi.

oublier - unutmoq

parler - gapirmoq

montrer - koʻrsatmoq

2. Aniq mayldagi hozirgi zamon (Présent de l'Indicatif) ning birlikdagi shaxs qoʻshimchalari quyidagilar boʻlib, ular talaffuz etilmaydi:

I shaxs – **e**; II shaxs – **es**; III shaxs – **e**;

Koʻplikdagi shaxs qoʻshimchalari har uchala guruhga taalluqli boʻlib, ulardan III shaxsdagi **–ent** qoʻshimchasi talaffuz etilmaydi:

I shaxs – **ons**; II shaxs – **ez**; III shaxs – **ent**;

3. Présent de l'indicatif da feʻl negizi oʻzgarmaydi.

Fermer (yopmoq)

Singulier (birlik)	Pluriel (ko'plik)
je ferme	nous fermons
tu fermes	vous fermez
il (elle) ferme	ils (elles) ferment

I guruh fe'llarining tuslanishdagi o'ziga xos xususiyatlari

1. **-cer** qo'shimchasi bilan tugagan fe'llarning tuslanishida (s) tovushini saqlash uchun **c** harfi **a, o, u** harflari oldida **ç** (cédille) orfografik belgisini qabul qiladi:

percer – nous perçons (Présent).

forcer – nous forçâmes (Passé simple).

placer – je plaçai (Passé simple).

2. **-ger** qo'shimchasi bilan tugagan fe'llarda (g) tovushini saqlash uchun **g** harfidan keyin kelgan **a, o, u** harflari oldidan **e** harfi orttiriladi:

nager – nous nageons (Présent).

plonger – nous plongeâmes (Passé simple).

songer – je songeai (Passé simple).

3. **-eler** va **-eter** qo'shimchasi bilan tugagan fe'llar kuchsiz **e** (caduc) oldida **l** va **t** undoshlarini qabul qiladi:

appeler – j'appelle, j'appellerai.

jeter – je jette, je jetterai.

4. Negizi undosh bilan tugagan ayrim fe'llarda undosh ikki kuchsiz **e** (caduc) orasida turganda, undoshdan oldin turgan **e** (caduc) ochiq [ɛ] tovushiga aylanadi:

mener – je mène, je mènerai

peser - je pèse, je pèserai

lever - je lève, je lèverai.

5. **-oyer, -uyer** bilan tugagan fe'llarda undosh ikki kuchsiz **e** (caduc) dan keyin kelayotgan **-y** harfi birlik va III shaxs ko'plikda **i** harfiga almashinadi:

employer – j'emploie, j'emploierai

essuyer - j'essuie, j'essuierai

-**ayer** qo'shimchasi bilan tugagan fe'llar imloda 2 xil ko'rinishga ega:

payer – je paye, je paie

balayer – je balaye, je balaie

-**eyer** qo'shimchasi bilan tugagan fe'llarda **y** harfi doim saqlanadi:

grasseyer – je grasseye, je grasseyerai

6. Fe'l negizi **é** yopiq unlisi va undosh bilan tugasa, bu undoshdan so'ng **e** (caduc) kelsa, **é** yopiq unlisi ochiq **é** tovushiga aylanadi:

préférer – je préfère

espérer – j'espère

II guruh fe'llari

Fransuz tilida II guruh fe'llari quyidagi belgilarga ega:

1. II guruh fe'llari noaniq formada **–ir** qo'shimchasi bilan tugagan bo'ladi.

2. Aniq mayldagi hozirgi zamon (Présent de l'Indicatif) ning birlikdagi shaxs qo'shimchalari quyidagilar bo'ladi:

I shaxs – **is**; II shaxs – **is**; III shaxs – **it**;

Bu qo'shimchalar fe'lning o'zagiga qo'shiladi.

Ko'plikda fe'l o'zagi bilan shaxs-son qo'shimchasi oralig'ga **–iss** suffiksi qo'shiladi:

je bâtis nous bâtissons

tu bâtis vous bâtissez

il bâtit ils bâtissent

II guruh fe'llarining tuslanishdagi o'ziga xos xususiyatlari

1. **hair** fe'li hozirgi zamon (Présent de l'Indicatif) birlikda va buyruq maylining II shaxs birligida **i** ustidagi trema [¨] belgisini yo'qotadi:

je hais [ε], tu hais, il hait; hais!

Bu fe'l Passé simple va Subjonctif imparfait zamonlarida accent circonflexe [^] belgisini yo'qotib, trema [¨] belgisi bilan yoziladi:

nous haïmes, vous haïtes, qu'il haït

2. **fleurir** fe'lining ko'chma ma'nodagi gullab-yashnamoq ma'nosi Imparfait de l'Indicatif va Participe passé formalarida **flor-** o'zagiga ega bo'ladi:

Il florissait (il flor+iss+ait), florissant.

Ko'p qo'llanuvchi II guruh fe'llari: anéantir, bâtir, blancher, choisir, finir, fleurir, jaunir, abéir, pâir, polir, rougir, salir, verdier.

III guruh fe'llari

III guruh fe'llariga quyidagilar kiradi:

1. **-ir** qo'shimchasi bilan tugallanib **-iss** qo'shimchasini olmaydigan fe'llar;

2. **-re** qo'shimchasi bilan tugallangan fe'llar;

3. **-oir** qo'shimchasi bilan tugallangan fe'llar;

4. **-er** qo'shimchasi bilan tugagan **aller** hamda **envoyer** fe'llari;

III guruh fe'llari I va II guruh fe'llari kabi yaxlit tuslanish formasiga ega emas, shuning uchun ular noto'g'ri tuslanuvchi fe'llar deb yuritiladi.

III guruh fe'llarining belgilari quyidagicha:

1. Noaniq formada **-ir, -oir, -re, -er** qo'shimchalari bilan tugagan bo'ladi.

2. Aniq mayldagi hozirgi zamon (Présent de l'Indicatif) ning birlikdagi shaxs qo'shimchalari quyidagicha bo'ladi:

a) I shaxs – s;	II shaxs – s;	III shaxs – t;
je lis	tu lis	il lit

b) I shaxs – e;	II shaxs – es;	III shaxs – e;
je cueille	tu cueilles	il cueille

3. Fe'l negizi o'zgaradi.

a) noto'liq va to'liq negizlar almashinadi.

Je sors. Nous sortons.

b) urg'uli va urg'usiz negizlar almashinadi.

Je veux. Nous voulons.

Je viens. Nous venons.

III guruh fe'llarining ko'p qismi Présent de l'indicatif dagi negizi va tuslanishdagi bir xilligiga ko'ra 9 turga bo'linadi.

A). Fe'l negizida oxirgi undosh oldidan undosh kelsa, so'ngi undosh tushurib qoldiriladi va negiz qisqaradi.

I turga noaniq formada **-ir**, qo'shimchasi bilan tugallangan: *sortir, sentir, server, se repentir, partir, mentir, dormir* kabi fe'llar va ulardan hosil bo'lgan yasama fe'llar kiradi.

II turga noaniq formada **-re**, qo'shimchasi bilan tugallangan *connaitre, paraitre* fe'llari va ulardan hosil bo'lgan yasama fe'llar kiradi.

III turga noaniq formada **-re** (ya'ni oxiri -uire) qo'shimchasi bilan tugallangan *conduire, produire, traduire, construire* kabi fe'llar kiradi.

IV turga noaniq formada **-re** qo'shimchasi bilan tugallangan *attendre, répondre, mordre, répandre, perdre* kabi fe'llar kiradi. Bu turdagi fe'llar III shaxs birlikda **-t** qo'shimchasini olmaydi.

V turga noaniq formada **-re**, qo'shimchasiga ega bo'lgan (**-aindre, -eindre, -oindre** qo'shimchalari bilan tugagan) *craindre, peindre, plaindre, joindre* kabi fe'llar kiradi. Mazkur fe'llar noaniq formada fe'l negizi bilan qo'shimchasi orasida **d** harfiga ega va oxirgi undosh qo'shimcha oldida noto'liq negizdagi unli burun tovushiga aylanadi.

B). Urg'uli va urg'usiz negizlarda unlilar almashinadigan va oxirgi undosh qo'shimcha oldida urg'li negizi qisqaradigan fe'llar.

VI turga noaniq formada **-ir**, qo'shimchasi bilan tugallangan *venir, tenir* fe'llari va ulardan hosil bo'lgan yasama fe'llar kiradi.

VII turga noaniq formada **-oir**, qo'shimchasiga ega bo'lgan *recevoir, apercevoir, concevoir, devoir* kabi fe'llar kiradi.

VIII turga noaniq formada **-oir**, qo'shimchasiga ega bo'lgan I va II shaxs birlikda qo'shimchasi **-x** bilan tugallangan *vouloir, pouvoir, valoir* kabi fe'llar kiradi.

To'liq va noto'liq, urg'uli va urg'usiz fe'l negizlarining almashinish tartibi VI, VII, VIII tur fe'llarining barchasida bir xildir.

V). Aniq mayldagi hozirgi zamon (Présent de l'Indicatif) da negizi o'zgarmaydigan fe'llar.

IX turga noaniq formada **–ir**, qo'shimchasi bilan tugallangan *ouvrir, couvrir, offrir* kabi fe'llar va ulardan hosil bo'lgan yasama fe'llar kiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan turlarga kirmaydigan (300 ga yaqin) III guruh fe'llari mavjud bo'lib, ularni alohida o'rganish lozim.

Masalan, *avoir, etre, faire, prendre, voir* fe'llari shular jumlasidandir.

Fransuz tili fe'l sistemasining xususiyatlari

Fransuz tilida fe'llar, ergashgan qo'shma gaplarda zamon munosabatlarini ifodalash xususiyatlariga ko'ra, o'ziga xos ravishda zamonlarda moslashadi.

Zamon munosabatlari 3 turlidir.

1. Bosh va ergash gaplarda kesim orqali ifodalangan ish-harakat bir paytning o'zida yuz beradi (*la simultanéité*).

2. Ergash gapning kesimi orqali ifodalangan ish-harakat bosh gapning kesimi orqali ifodalangan ish-harakatdan oldin yuz beradi (*l'antériorité*).

3. Ergash gapning kesimi orqali ifodalangan ish-harakat bosh gapdagi ish-harakatdan keyin yuz beradi (*la postériorité*).

Ish-harakatning bir paytda, oldin yoki keyin yuz berishi faqat hozirgi zamongagina xos bo'lmay, balki kelasi va o'tgan zamonlarga ham taalluqlidir.

Moslashuv xususiyatini ergash gaplarda yaqqol ko'rish mumkin. Ergash gapdagi zamon formasi bilan bosh gapdagi zamon formasining moslashuvi **zamonlar moslashuvi** (*Concordance des temps*) deyiladi.

Agar bosh gapdagi kesim *Présent de l'Indicatif* yoki *Futur simple* da tursa, u holda ergash gapda:

a). Ish-harakatning bir paytda yuz berayotganligi (*Action simultanée*) ni ifodalash uchun *Présent de l'Indicatif* zamoni qo'llanadi.

Vous savez (serez) qu'il travaille à l'usine.

Bilasizki, u zavodda ishlayapti.

b). Ish-harakatning keyin yuz beradiganligini (Action postérieure) ifodalash uchun Futur simple yoki Futur immédiat zamoni qo'llanadi.

Vous savez (serez) qu'il travaillera (va travailler) à l'usine.

Bilasizki, u endi zavodda ishlaydi.

v). Ish-harakatning oldin yuz berganligini (Action antérieure) ifodalash uchun Passé composé, Imparfait yoki Passé immédiat zamonlari olinadi.

Vous savez qu'il a travaillé (travaillait, vient de travailler) à l'usine.

Bilasizki, u zavodda ishladi.

Eslatma: Payt ergash gaplarda o'tgan zamondan keyin keladigan ish-harakatni ifodalash uchun Futur antérieur zamoni qo'llanadi:

Aussitôt qu'il sera venu, nous partirons. U kelgan zahoti, biz ketamiz. U kelishi bilan, biz ketamiz.

Agar bosh gapdagi kesim o'tgan zamonlarning birida yoki shart maylida tursa, u holda ergash gapda:

a). Ish-harakatning bir paytda yuz berayotganligini anglatish uchun Imparfait (Présent dans le passé) olinadi:

Vous avez su qu'il travaillait à l'usine.

Uning zavodda ishlayotganligini siz bilardingiz.

b). Ish-harakatning keyin yuz beradiganligini anglatish uchun Futur dans le passé yoki Futur immédiat dans le passé zamonlari qo'llanadi:

Vous avez su qu'il travaillait (allait travailler) à l'usine.

Uning zavodda ishlamoqchi ekanligini siz bilar edingiz.

v). Ish-harakatning oldin yuz berganligini ifodalash uchun Plus-que-parfait yoki Passé immédiat dans le passé zamonlari qo'llaniladi:

Vous avez su qu'il avait travaillé (venait de travailler) à l'usine.

Uning zavodda ishlaganligini siz bilar edingiz.

Agar bosh gapdagi kesim Passé simple zamonida tursa, payt ergash gapda Passé antérieur ishlatiladi:

Aussitôt qu'il fut arrivé, nous partimes.

U kelgan zahoti, biz jo'nab ketdik.

Indicatif da zamonlar moslashuvi
(Concordance des temps de l'Indicatif)

Bosh gap	Ergash gap		
	Ish-harakatning bir paytda yuz berishi	Ish-harakatning oldin yuz berishi	Ish-harakatning keyin yuz berishi
Présent de l'Ind. Futur simple	Présent de l'Ind.	Passé composé Imparfait Passé immédiat	Futur simple Futur immédiat
Pierre dit (dira)	qu'il arrive à Tachkent.	qu'il est arrivé (arrivait, vient d'arriver) à Tachkent.	qu'il arrivera (va arriver) à Tachkent.
Passé simple Passé composé	Imparfait (Présent dans le passé)	Plus-que-parfait Passé immédiat dans le passé	Futur dans le passé Futur immédiat
Pierre dit (a dit)	qu'il arrivait à Tachkent.	qu'il était arrivé (venait d'arriver) à Tachkent.	qu'il arriverait (allait arriver) à Tachkent.

Olmoshli fe'llar (Verbes pronominaux)

Noaniq formada **se** o'zlik olmoshi bilan qo'llanadigan fe'llar **olmoshli fe'llar** deb yuritiladi: se rencontrer

se peigner

se pencher

Olmoshli fe'llar ikki olmosh bilan tuslanadi, ulardan birinchisi ega vazafasini, ikkinchisi esa vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajaradi:

Je me lave vite. Nous nous lavons vite.

Tu te laves vite. Vous vous lavez vite.

Il (Elle) se lave vite. Ils se lavent vite.

Olmoshli fe'llar tuslanishiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:
se coucher – I guruh

se rejouir – II guruh

se render – III guruh

Shaxssiz formalarda **se** o‘zlik olmoshi ish-harakatni bajaruvchi shaxsga qarab o‘zgaradi:

Après m’être levé, j’ai fait ma toilette.

Murakkab zamonlarda olmoshli fe’llar **être** ko‘makchi fe’li bilan tuslanadi. Olmoshli fe’llar quyidagilarga bo‘linadi:

1. Barqaror olmoshli fe’llar:

s’abstenir	se moquer
s’accouder	se repentir
s’écrier	s’en aller
s’empreser	se souvenir
s’adonner	se taire
s’emparer	s’évanouir
s’évader.	

2. Beqaror olmoshli fe’llar. Ular olmoshli hamda olmoshsiz formalarda ishlatilishi mumkin: lever – se lever

voir –se voir

rencontrer – se rencontrer

appeler - s’appeler

Insicatif	
Présent	Passé composé
Je me repose Tu te reposes Il se repose Nous nous reposons Vous vous reposez Ils se reposent	Je me suis repose Tu t’es reposé Il s’est repose Nous nous sommes reposés Vous vous êtes reposés Ils se sont reposés
Imparfait	Plus-que-parfait
Je me reposais	Je m’étais reposé (e)
Passé simple	Passé antérieur
Je me reposai	Je me fus reposé (e)

Futur simple		Futur antérieur	
Je me reposerai		Je me serai reposé (e)	
Impératif			
Repose-toi! Reposons-nous! Reposez-vous!			
Conditionnel			
Présent		Passé	
Je me reposerais		Je me serais reposé (e)	
Subjonctif			
Présent		Passé	
Que je me repose		Que je me sois reposé (e)	
Imparfais		Plus-que-parfait	
Que je me reposasse		Que je me fusse reposé (e)	
Infinitif			
Présent		Passé	
Se reposer		S'être reposé (e,s,es)	
Participe			
Présent	Passé		Passé composé
Se reposant	Reposé		S'étant reposé (e,s,es)

Fe'lning grammatik kategoriyalari (Categories grammaticales du verbe)

1. Fe'llarda shaxs va son kategoriyalari (La personne et le nombre).

Birlik

I shaxs je parle - men gapiryapman

II shaxs tu parles - sen gapiryapsan

III shaxs il parle - u gapiryapti

Ko'plik

I shaxs nous parlons - biz gapiryapmiz

II shaxs vous parlez - siz gapiryapsiz

III shaxs ils parlent - ular gapiryaptilar

2. Mayl va zamon kategoriyalari (Le mode et le temps).

Ish-harakatning voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalovchi kategoriya mayl kategoriyasi deyiladi. Fransuz tilida 4 ta mayl bor:

- 1) Indicatif (aniqlik mayli)
- 2) Impératif (buyruq mayli)
- 3) Conditionnel (shart mayli)
- 4) Subjonctif (istak mayli)

Indicatif (aniqlik mayli) hozirgi, o'tgan, kelasi zamonlarda bajariluvchi aniq ish-harakatni ifodalaydi.

Impératif (buyruq mayli) ish-harakatning bajarilishiga undash, da'vat etish, iltimos va so'zlovchining buyrug'ni ifodalaydi.

Conditionnel (shart mayli) shubhali, bajarilishi mumkin bo'lgan ish-harakat, holatni ifodalaydi.

Subjonctif (istak mayli) gumon, istakni ifodalivchi ish-harakatlarda qo'llaniladi.

Fransuz tilida har bir mayl bir necha zamonga egadir. Zamonlar sodda yoki murakkab bo'lishi mumkin. Bir fe'lning tuslanishidan iborat bo'lgan forma sodda zamon deyilsa, ko'makchi fe'llarning (avoir, être) o'tgan zamon sifatdoshi hamda biror sodda zamon yordamida hosil qilingan zamonlar murakkab zamonlar deyiladi.

Fransuz tilida fe'llar 4 ta asosiy formaga ega. Bu formalar fe'l o'zagiga qo'shimchalar qo'shish vositasida hosil qilinadi.

1. Infinitif (fe'lning noaniq formasi).

- 1) Futur simple (kelasi zamon)
- 2) Futur dans le passé (O'tgan zamondagi kelasi zamon)
- 3) Conditionnel présent (Shart maylining hozirgi zamon formasi)

2. Présent de l'indicatif (hozirgi zamon aniq formasi)

- 1) Imparfait de l'Indicatif (O'tgan zamon davom fe'li)
- 2) Impératif (Buyruq forma)
- 3) Participe présent et gérondif (Hozirgi zamon sifatdoshi va ravishdosh)
- 4) Présent du subjonctif (Istak maylining hozirgi zamoni)

3. Passé simple (Sodda o'tgan zamon)

- 1) Imparfait du sibjonctif (Istak maylining o'tgan zamon davom formasi)

4. Participe passé (O'tgan zamon sifatdoshi)

- 1) Passé composé (Murakkab o'tgan zamon)
- 2) Plusque-parfait (Uzoq o'tgan zamon)
- 3) Passé antérieur (Oldin bajarilgan o'tgan zamon formasi)
- 4) Futur antérieur (Oldin bajariladigan kelasi zamon formasi)
- 5) Conditionnel passé (Shart maylining o'tgan zamon formasi)
- 6) Passé du subjonctif (Istak maylining o'tgan zamon formasi)
- 7) Plus-parfait du subjonctif (Istak maylining uzoq o'tgan zamon formasi)
- 8) Infinitif passé (Murakkab infinitiv)
- 9) Participe passé composé (Murakkab o'tgan zamon sifatdoshi)

Indicatif (aniqlik mayli) ish-harakatning aniq sodir bo'layotganligini, sodir bo'lishini yoki bo'lib o'tganligini bildiradi.

Masalan: Il va à la bibliothèque – U kutubxonaga boryapti.

Il ira à la bibliothèque – U kutubxonaga boradi.

Il est allé à la bibliothèque – U kutubxonaga bordi.

Présent de l'Indicatif (hozirgi zamon aniq formasi)

Présent de l'Indicatif ish-harakatning nutq paytida bajarilayotganligini bildiradi.

Nous apprenons le français.

Présent de l'Indicatif fe'l o'zagiga quyidagi shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi:

I guruh fe'llari uchun	II guruh fe'llari uchun	III guruh fe'llari uchun
I shaxs -e -ons	I shaxs -is -issons	I shaxs -s -ons
II shaxs -es -ez	II shaxs -is -issez	II shaxs -s -ez
III shaxs -e -ent	III shaxs -it -issent	III shaxs -t(d) -ent

Aimer (I guruh)

j'aim-e nous aim-ons

tu aim-es vous aim-ez

il aim-e ils aim-ent

Finir (II guruh)

je fin-is nous fin-issons

tu fin-is	vous fin-issiez
il fin-it	ils fin-issent

Partir (III guruh)

je par-s	nous part-ons
tu par-s	vous part-ez
il par-t	ils part-ent

Présent de l'Indicatif (hozirgi zamon aniq formasi) quyidagi hollarda qo'llaniladi:

1. Ish-harakatning nutq paytida bajarilayotganligini ifodalash uchun:

On sonne. La leçon commence.

Qo'ng'iroq chalinyapti. Dars boshlanyapti.

2. Ish-harakatning davom etayotganligini yoki takrorlanayotganligini ifodalash uchun:

Chaque matin je fais de la gymnastique.

Har kuni ertalab men gimnastika bilan shug'ullanaman.

3. Ish-harakatning doimiylikini ifodalash uchun:

Le soleil se lève à l'Orient. Quyosh sharqdan chiqadi.

4. Yaqin kelasi ish-harakatni ifodalash uchun:

Nous partons ce soir. Biz kechqurun jo'naymiz.

5. **si** bog'lovchisidan keyin sodir bo'ladigan ish-harakatni ifodalash uchun:

S'il pleut, nous resterons chez nous. Yomg'ir yog'sa, uyda qolamiz.

Mode impératif (buyruq mayli)

Mode impératif (buyruq mayli) ish-harakatning bajarilishiga undash, da'vat etish, iltimos va so'zlovchining buyrug'ni ifodalaydi. Fransuz tilida buyruq mayli Présent de l'Indicatif dagi ikkinchi shaxs birlik, birinchi va ikkinchi shaxs ko'plikdagi fe'ldan yasaladi. Buyruq mayli yasalganda kishilik olmohsi hamda birinchi va ba'zi uchinchi guruh (ouvrir, aller, envoyer) fe'llarining ikkinchi shaxs birlikdagi "s" qo'shimchsi tushirib qoldiriladi:

Inficatif Impératif

Tu fermes la porte. - Ferme la porte!

Nous fermons la porte. - Fermons la porte!

Vous fermez la porte. - Fermez la porte!

Tu ouvres la fenêtre. - Ouvre la fenêtre!

Tu vas à la maison. - Va à la maison!

Tu envoies la lettre. - Envoie la lettre!

Eslatma: en va y olmoshlari oldida qo‘llangan birinchi va ba’zi uchinchi guruh fe’llari Imperatif ning ikkinchi shaxs birlikdagi “s” qo‘shimchsini saqlab qoladi:

Vas - y vite! – U yoqqa tezroq bor!

Envoyes – en! – Bundan jo’nat!

Noto‘g‘ri tuslanuvchi quyidagi fe’llar buyruq maylida alohida formaga egadir:

Avoir – Aie! Ayons! Ayez!

Etre – Sois! Soyons! Soyez!

Savoir – Sache! Sachons! Sachez!

Vouloir – Veuille! Veillons! Veuillez!

Buyruq maylining bo‘lishsiz formasida **ne** yuklamasi fe’ldan oldin, **pas** esa fe’ldan keyin qo‘yaladi.

N’oublie pas cette règle!

Olmoshli fe’llarning buyruq maylini yasashda to‘ldiruvchi olmosh ishlatiladi. Buyruq maylining bo‘lishli formasida, to‘ldiruvchi olmosh fe’ldan keyin kelib, **te, nous, vous** urg‘li kishilik olmoshlari qo‘llaniladi.

Tu te lèves. – Lève-toi!

Nous nous levons. – Levons-nous!

Vous vous levez. - Levez-vous!

Olmoshli fe’llarning bo‘lishsiz formasida to‘ldiruvchi olmosh fe’ldan oldin qo‘yaladi:

Ne te lève pas!

Ne nous levons pas!

Ne vous levez pas!

Passé composé (o'tgan zamon aniq formasi)

Passé composé tugal o'tgan ish-harakatni anglatadi. Ushbu zamonni yasash uchun **avoir** yoki **être** ko'makchi fe'llaridan biri Présent de l'Indicatif da olinib, asosiy tuslanayotgan fe'lni Participe passé formasi olinadi.

J'ai lu ce livre. Men bu kitobni o'qidim.

Elle est allée à la bibliothèque. U kutubxonaga bordi.

O'tgan zamon sifatdoshining yasalishi

Fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshi I guruh fe'l o'zagiga **é**, II guruh fe'l o'zagiga **i** qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi.

Masalan: ferm-er – fermé

fin-ir – fini.

III guruh fe'llarining o'tgan zamon sifatdoshi turlicha bo'lib, ularni alohida o'rganish kerak.

Masalan: venir – venu

faire – fait

lire – lu

mettre – mis

partir – parti

être - été

Être yordamchi fe'li bilan quyidagi fe'llar tuslanadi:

1. 12 ta o'timsiz fe'l va ulardan hosil bo'lgan yasama fe'llar.

aller – venir (devenir, revenir)

arriver – partir

entrer – sortir

rester – tomber

monter – descendre

naitre – mourir

Masalan: Elle est née à Tachkent.

Ils sont revenus de Paris.

3. Barcha olmoshli fe'llar.

Masalan: Nous nous sommes bien reposés.

3. Majhul darajadagi fe'llar.

Masalan: Cette lettre a été envoyée par avion.

Qolgan barcha o'timli, hamda ko'pgina o'timsiz fe'llar **avoir** yordamchi fe'li bilan tuslanadi: Nous avons fait ces exercices.

Passé composé quyidagi hollarda qo'llaniladi:

1. Ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytidan oldin bajarilganligini ifodalash uchun:

Il comprend le français, il l'a étudié à l'école.

U fransuz tilini tushunadi, u uni maktabda o'rgangan.

2. Nutq tugagan paytni va ketma-ket kelgan ish-harakatni ifodalash uchun:

As-tu pris ce livre à la bibliothèque?

Oui, je l'ai pris. Je l'ai déjà lu et je l'ai rendu.

Bu kitobni kutubxonadan oldingmi?

Ha, men uni oldim. Men uni o'qib chiqdim va uni kutubxonaga topshirdim.

3. Gazeta va jurnal maqolalaridagi tarihiy va siyosiy faktlar va bo'lib o'tgan yagona boqealarni ifodalash uchun:

P.Curie et Marie Curie ont découvert la radium.

P.Kyuri va Mari Kyuri radiyni kashf etdilar.

Imparfait de l'Indicatif (O'tgan zamon davom fe'li)

Imparfait sodda o'tgan zamon bo'lib, u o'zbek tilidagi o'tgan zamon davom fe'liga to'g'ri keladi. Imparfait zamonini yasash uchun Present da tuslangan fe'llarning I shaxs ko'pligi olinib, undagi shaxs-son qo'shimchalarini o'rniga Imparfait zamonining qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi.

Imparfait zamonidagi shaxs-son qo'shimchalari hamma guruh fe'llari uchun bir xil bo'lib, ular quyidagilar:

I shaxs -ais -ions

II shaxs -ais -iez

III shaxs -ait -aient

Demander (I guruh)

je demand-ais

nous demand -ions

tu demand -ais	vous demand -iez
il demand -ait	ils demand -aient

Batir (II guruh)

je bâtais -ais	nous bâtais -ions
tu bâtais -ais	vous bâtais -iez
il bâtais -ait	ils bâtais -aient

Prendre (III guruh)

je prenais	nous pren -ions
tu prenais	vous pren -iez
il prenait	ils pren -aient

Eslatma: **être** fe'li Imparfait zamonida alohida formaga ega:

j'étais	nous étions
tu étais	vous étiez
il était	ils étaient

Imparfait zamoni quyidagi hollarda qo'llaniladi:

1. Ish-harakatning yoki holatning o'tgan zamonda davom etib turganligini, davomiyligini ifodalash uchun:

Il étudiait le français. U fransuz tilini o'rganib yurardi.

Ils travaillaient aux champs. Ular dalada ishlar edi.

2. Ish-harakatni o'tgan zamonda takrorlanib turganligini ifodalash uchun (bunday holda ko'pincha d'habitude, souvent, toujours, chaque fois, chaque jour, chaque année kabi so'zlar ishtirok etadi.):

D'habitude, je me levais à 7 heures du matin.

Odatda men soat 7 da turar edim.

3. O'tgan zamonda ikki ish-harakatni bir vaqtda bajarilganligini ifodalash uchun:

Pendant que les enfants jouaient dans la cour, la mère lisait une revue.

Bolalar hovlida o'ynayotganlarida, onasi journal o'qir edi.

4. O'tgan voqealarni tasvirlashda:

Le ciel était bleu, le soleil brillait gaiement et le vent soufflait. C'était le printemps.

Havo musaffo edi, quyosh porlab turar edi, shamol esardi. Bu – bahor fasli edi.

5. Shart ergash gaplarda **si** bog‘lovchisidan keyin Conditionnel présent o‘rniga Imparfait ishlatiladi.

Si tu étais plus attentive, tu ne ferais pas de fautes.

Diqqat-e’tiborliroq bo‘lganingda edi, xato qilmagan bo‘lar eding.

Passé simple (Sodda o‘tgan zamon)

Passé simple sodda o‘tgan zamon bo‘lib, u hozirgi zamon bilan bog‘liq bo‘lmagan, tugallangan ish-harakatni anglatadi. U o‘zbek tilidagi o‘tgan zamon aniq fe’liga to‘g‘ri keladi. Passé simple zamoni fe’l o‘zagiga quyidagi shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shish bilan yasaladi:

I guruh fe’llari uchun	II guruh fe’llari uchun	III guruh fe’llari uchun
I shaxs -ai -âmes	I shaxs -is -îmes	I sh. -is (-us) -îmes (-ûmes)
II shaxs -as -âtes	II shaxs -is -îtes	II sh. -is (-us) -îtes (-ûtes)
III shaxs -a -èrent	III shaxs -it -irent	III sh.-it (-ut) -irent (-urent)

Passer (I guruh)

je passai nous passâmes

tu passas vous passâtes

il passa ils passèrent

Choisir (II guruh)

je choisis nous choisîmes

tu choisis vous choisîtes

il choisit ils choisirent

Mettre, lire (III guruh)

je mis nous mimes

tu mis vous mites

il mit ils mîrent

je lus nous lûmes

tu lus vous lûtes

il lut ils lurent

Passé simple ning qo'llanilishi

Passé simple tarixiy tugallangan zamon bo'lib, voqealarni bayon qilishda va yozma nutqda qo'llaniladi. Passé simple og'zaki nutqda ishlatilmaydi. Og'zaki nutqda Passé simple o'rniga Passé compose ishlatiladi. Passé simple quyidagilarni ifodalaydi:

1. Ish-harakatning aniq bir paytida bo'lib o'tganligini:

Alisher Navoi naquit à Hérat.

Alisher Navoiy Hirotda tug'ilgan.

2. Bir necha tugallangan harakatning ketma-ket sodir bo'lganligini:

Elle choisit une orange, la pela et la mangea.

U bir apelsin tanladi, uni tozaladi va edi.

Plus-que-parfait de l'Indicatif

Plus-que-parfait murakkab zamon bo'lib, ish-harakatning o'tgan zamondagi boshqa biror ish-harakatdan oldin bajarilganligini anglatadi. Plus-que-parfait ergash gaplarda qo'llansada, o'zbek tiliga ko'pincha o'tgan zamon sifatdoshi bo'lib tarjima qilinadi. Sodda gaplarda esa uzoq o'tgan zamonga mos keladi.

Plus-que-parfait zamoni Imparfait zamonida tuslangan **avoir** yoki **etre** yordamchi fe'liga asosiy tuslanuvchi fe'lning Participe passé formasini qo'shish yo'li bilan yasaladi.

Passer (I guruh)

j'avais passé	nous avions passé
---------------	-------------------

tu avais passé	vous aviez passé
----------------	------------------

il avait passé	ils avaient passé
----------------	-------------------

Choisir (II guruh)

j'avais choisi	nous avions choisi
----------------	--------------------

tu avais choisi	vous aviez choisi
-----------------	-------------------

il avait choisi	ils avaient choisi
-----------------	--------------------

Partir (III guruh)

j'étais parti(e)	nous étions parti(e)s
------------------	-----------------------

tu étais parti(e)	vous étiez parti(e)s
-------------------	----------------------

il était parti	ils étaient partis
----------------	--------------------

elle était partie	elles étaient parties
-------------------	-----------------------

Plus-que-parfait ning qo‘llanilishi

1. Plus-que-parfait bosh gapdagi ish-harakatga nisbatan ergash gapdagi ish-harakatning oldin tugallanganligini anglatadi:

Il a corrigé les fautes qu’il avait faites dans sa dictée.

2. Plus-que-parfait mustaqil gaplarda qo‘llanib, bo‘lib o‘tgan voqeadan avval bajarilgan ish-harakatni anglatadi:

La Revolution a triomphé, on avait longtemps lutté pour l’indépendance.

3. Shart ergash gaplarda **si** bog‘lovchisidan keyin Conditionnel passé o‘rniga Plus-que-parfait ishlatiladi:

S’il avait reçu ce télégramme, il serait venu à la gare.

Passé antérieur (Oldin bajarilgan o‘tgan zamon formasi)

Passé antérieur murakkab o‘tgan zamon bo‘lib, u o‘zbek tiliga ko‘pincha ravishdosh bo‘lib tarjima qilinadi. Passé antérieur zamoni yasash uchun **avoir** yoki **être** yordamchi fe’li Passé simple da olinib, asosiy tuslanuvchi fe’lning Participe passé formasini qo‘shishiladi.

Passer (I guruh)

j’eus passé	nous eûmes passé
tu eus passé	vous eûtes passé
il eut passé	ils eurent passé

Choisir (II guruh)

j’eus choisi	nous eûmes choisi
tu eus choisi	vous eûtes choisi
il eut choisi	ils eurent choisi

Mettre (III guruh)

j’eus mis	nous eûmes mis
tu eus mis	vous eûtes mis
il eut mis	ils eurent mis

Sortir (III guruh)

j’fus sorti(e)	nous fûmes sorti(e)s
tu fus sorti(e)	vous fûtes sorti(e)s
il fut sorti	ils furent sortis
elle fut sortie	elles furent sorties

Passé antérieur tugallangan ish-harakatni ifodalash uchun yozma nutqlarda qo'llaniladi. Passé antérieur zamoni Plus-que-parfait kabi yuz bergan ikki ish-harakatdan birining ikkinchisidan oldinroq bajarilganligini ifodalaydi. Plus-que-parfait oldinroq o'tgan ish-harakatni ifodalasa, Passé antérieur ketma-ket bo'lib o'tgan ish-harakatdan birining ikkinchisidan oldinroq bajarilganligini anglatadi. Passé antérieur ko'pincha *dès que, aussitôt que, quand, lorsque, à peine...que, après que* kabi bog'lovchi so'zlar bilan boshlangan payt ergash gaplarda ishlatiladi, bunday paytda bosh gapda Passé simple zamoni qo'llaniladi.

Lorsque nous fûmes arrivés à l'école, nous entrâmes dans la classe.

Futur simple (kelasi zamon)

Futur simple sodda kelasi zamon bo'lib, kelajakda bajariladigan ish-harakatni ifodalaydi. U o'zbek tilidagi kelasi zamon aniq fe'liga to'g'ri keladi. Futur simple zamoni fe'lning noaniq formasiga quyidagi shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi:

I shaxs -ai -ons

II shaxs -as -ez

III shaxs -a -ont

Passer (I guruh)

je passerai nous passerons

tu passeras vous passerez

il passera ils passeront

Choisir (II guruh)

je choisirai nous choisirons

tu choisiras vous choisirez

il choisira ils choisiront

Mettre (III guruh)

je mettrai nous mettrons

tu mettras vous mettrez

il mettra ils mettront

Futur simple ning qo'llanilishi

1. Ish-harakatning so'zlanib turgan paytga nisbatan keyin bajarilishini ifodalash uchun:

Dans deux ans il sera professeur.

Ikki yildan keyin u o'qituvchi bo'ladi.

2. Shart ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gap Futur simple da kelsa, shart bog'lovchisi **si** dan keyin Futur simple o'rniga Present qo'llaniladi:

Si nous avons le temps, nous irons la voir.

Vaqt no'lsa uni ko'rgani boramiz.

Futur antérieur (Oldingi kelasi zamon)

Futur antérieur murakkab kelasi zamon bo'lib, u nutq so'zlanib turgan paytdan keyin bajariladigan ikki ish-harakatdan birining ikkinchisidan oldinroq sodir bo'lishini anglatadi. Futur antérieur zamoni yasash uchun **avoir** yoki **être** yordamchi fe'li Futur simple da olinib, asosiy tuslanuvchi fe'lning Participe passé formasini qo'shishiladi.

Acheter

j'aurai acheté nous aurons acheté

tu auras acheté vous aurez acheté

il aura acheté ils auront acheté

Venir

je serai venu nous serons venus

tu seras venu vous serez venus

il sera venu ils seront venus

Futur antérieur zamoni quyidagi hollarda qo'llaniladi.

1. Payt holini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi mustaqil gaplarda:

Demain, à cette heure, il sera arrivé à Tachkent.

Ertaga, shu paytda u Toshkentga keladi.

2. *dès que, aussitôt que, quand, lorsque, à peine...que, après que* kabi bog'lovchilar bilan kiritilgan payt ergash gaplarda:

Lorsque j'aurai lu ce livre, je te le rendrai.

Bu kitobni o'qib bo'lgach, senga uni qaytarib beraman.

Futur dans le passé (O'tgan zamondagi kelasi zamon)

Futur dans le passé o'tgan zamonda sodir bo'lgan ish-harakatga nisbatan kelasi zamonda bo'ladigan ish-harakatni anglatadi. Futur dans le passé zamoni yasash uchun fe'llarning noaniq formasiga Imparfait zamonining shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi:

Acheter (I guruh)

j'arriverais	nous arriverions
tu arriverais	vous arriveriez
il arriverait	ils arriveraient

Choisir (II guruh)

je choisirais	nous choisirions
tu choisirais	vous choisiriez
il choisirait	ils choisiraient

III guruh fe'llarida Futur dans le passé zamoni Futur simple o'zagiga Imparfait qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi:

Mettre (III guruh)

je mettrais	nous mettrions
tu mettrais	vous mettriez
il mettrait	ils mettraient

Futur dans le passé zamonlar moslashuviga ko'ra ergash gaplarda qo'llanililib, o'tgan zamonda sodir bo'lgan ish-harakatga nisbatan kelajakda bajariladigan ish-harakatni ifodalaydi.

Il a dit qu'il irait à la bibliothèque demain.

U ertaga kutubxonaga borishini aytdi.

Temps Immédiats

1. Futur immédiat (proche) (yaqin kelasi zamon).

Futur immédiat zamoni Présent da tushlangan **aller** fe'liga asosiy tushlanuvchi fe'lning noaniq formasini qo'shish bilan yasaladi. Bunda **aller** fe'li ko'makchi fe'l sifatida qoraladi.

Passer (I guruh)

je vais passer	nous allons passer
----------------	--------------------

tu vas passer	vous allez passer
il va passer	ils vont passer

Finir (II guruh)

je vais finir	nous allons finir
tu vas finir	vous allez finir
il va finir	ils vont finir

Mettre (III guruh)

je vais mettre	nous allons mettre
tu vas mettre	vous allez mettre
il va mettre	ils vont mettre

Futur immédiat zamoni hozirgi zamon bilan bog‘liq bo‘lgan yaqin kelasi zamonni ifodalaydi:

Attendez-le, il va venir.

Uni kuting, u hozir keladi.

2. Futur immédiat dans le passé (O‘tgan zamondagi yaqin kelasi zamon).

Futur immédiat dans le passé zamoni **aller** fe‘lini yordamchi fe‘l sifatida Imparfait de l’indicatif da olib, asosiy tuslanuvchi fe‘lning noaniq formasini qo‘shish bilan yasaladi. Futur immédiat dans le passé o‘tgan zamonda nutq so‘zlanib turgan paytdan keyin tezda bajariladigan ish-harakatni ifodalashda qo‘llaniladi:

J’allais écrire une lettre à mon ami, quand le père est entré dans la chambre.

Otam xonaga kirib kelganida, men endigina do‘stimga xat yozmoqchi edim.

3. Passé immédiat (récent) (yaqin o‘tgan zamon).

Passé immédiat zamoni **venir** fe‘lini yordamchi fe‘l sifatida Présent de l’Indicatif da olib, asosiy tuslanuvchi fe‘lning noaniq formasini va uning oldidan **de** predlogini qo‘yish bilan yasaladi:

Il vient de sortir de la classe.

U sinifdan hozirgina chiqib ketdi.

Passer

je viens de passer	nous venons de passer
--------------------	-----------------------

tu viens de passer vous venez de passer
il vient de passer ils viennent de passer

4. Passé immédiat dans le passé zamoni **venir** fe'lini yordamchi fe'l sifatida Imparfait de l'Indicatif da olib, asosiy tuslanuvchi fe'lning noaniq formasini va uning oldidan **de** predlogini qo'yish bilan yasaladi. Passé immédiat dans le passé o'tgan zamonda bajarilgan ish-harakatdan oldin sodir bo'lgan boshqa ish-harakatni ifodalaydi:

Il a dit qu'il venait d'acheter ce manuel.

U endigina darslik sotibolganligini aytdi.

Passer

je venais de passer nous venions de passer
tu venais de passer vous veniez de passer
il venait de passer ils venaient de passer

Mode conditionnel (Shart mayli)

Mode Conditionnel (Shart mayli) ish-harakatning biror shart bilan bajarilishini anglatadi. Conditionnel mayli mustaqil gaplarda istak, iltimos ma'nolarini hamda bajarilishi mumkin bo'lgan ish-harakatni ifodalashda qo'llaniladi:

Je voudrais faire ce travail.

Men shu ishni qilmoqchiman.

Conditionnel maylida Conditionnel présent, Conditionnel passé zamonlari hamda Conditionnel passé ning II-formasi mavjuddir.

Conditionnel présent sodda zamon bo'lib, uni hosil qilish uchun fe'lning noaniq formasiga quyidagi shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi:

I shaxs -ais -ions

II shaxs -ais -iez

III shaxs -ait -aient

Ba'zi III guruh fe'llaridan Conditionnel présent hosil qilishda ularning negizi o'zgaradi:

Etre – je serais; envoyer – j'enverrais; avoir – j'aurais;

Parler (I guruh)

je parlerais	nous parlerions
tu parlerais	vous parleriez
il parlerait	ils parleraient

Finir (II guruh)

je finirais	nous finirions
tu finirais	vous finiriez
il finirait	ils finiraient

Venir (III guruh)

je viendrais	nous viendrions
tu viendrais	vous viendriez
il viendrait	ils viendraient

Conditionnel passé murakkab zamon bo‘lib, uni yasash uchun **avoir** yoki **être** yordamchi fe’li Conditionnel présent da olinib, asosiy tuslanuvchi fe’lning Participe passé fornasini qo‘shishiladi.

Acheter

j’aurais acheté	nous aurions acheté
tu aurais acheté	vous auriez acheté
il aurait acheté	ils auraient acheté

Venir

je serais venu	nous serions venus
tu serais venu	vous seriez venus
il serait venu	ils seraient venus

Masalan: *Hier, j’aurais fait volontiers ce rapport.*

Il serait parti la semaine passée.

Conditionnel passé zamonining II formasi Plus-que-pardait du Subjonctif zamoni shakli jihatdan bir xildir. Conditionnel passé ning II- formasi og‘zaki nutqda ishlatilmaydi, u faqat yozma nutqdagina uchratiladi. Ushbu zamonni yasash uchun **avoir** yoki **être** yordamchi fe’li Imparfait du Subjonctif da olinib, asosiy tuslanuvchi fe’lning Participe passé fornasi qo‘shishiladi.

Aimer

j’eusse aimé	nous eussions aimé
tu eusses aimé	vous eussiez aimé
il eût aimé	ils eussent aimé

Faire

j'eusse fait	nous eussions fait
tu eusses fait	vous eussiez fait
il eût fait	ils eussent fait

Conditionnel passé zamonining II formasining qo'llanilishi Plus-que-pardait du Subjonctif zamoni bilan umumiylikka ega. U asosan **si** bog'lovchisi bilan ergash gapli qo'shma gaplarda qo'llaniladi:

Si elle eût voulu, elle lui eût écrit.

Conditionnel zamonlarining shartli ish-harakatni ifodalashda qo'llanilishi

Conditionnel zamonlari ish-harakatning bajarilishi biror shartga bog'liq bo'lishini ifodalab, ko'pincha shart ergash gapli qo'shma gaplarda qo'llaniladi. Bunda asosan Conditionnel zamonlari bosh gapda kelib, ergash gapda aniq mayl zamonlari qo'llaniladi.

Shart ergash gaplarda taxminan bajarilishi mumkin bo'lgan ish-harakat so'zlanib turgan paytga yoki kelajakka qarashli bo'lganda Imparfait de l'Indicatif qo'llanib, bosh gapda o'sha paytga qarashli ish-harakat Conditionnel présent zamonida qo'yiladi:

Si vous sortiez maintenant, ils vous mettraient la main dessus, mon fils (L.Aragon).

O'g'lim, siz endi chiqqaningizda, ular sizni ushlab olishadi.

Shart ergash gaplarda taxmin qilingan ish-harakat o'tgan zamonga qarashli bo'lganda Plus-que-parfait de l'Indicatif yoki Conditionnel passé zamonining II formasi olinib, bosh gapdagi bajarilmagan ish-harakatni ifodalash uchun Conditionnel passé yoki Conditionnel passé ning II formasi olinadi:

Si Rose n'était pas allée ce matin à l'école, Monsieur Richard aurait probablement téléphoné lui-même (J.Laffitte).

Roza bugun ertalab maktabga bormaganida, balki janob Risharning o'zi qo'ng'iroq qilgan bo'lar edi.

Ergash gaplardagi ish-harakat so'zlanib turgan paytga qarashli bo'lib, bosh gapdagi ish-harakat o'tgan zamonga qarashli bo'lganda,

ergash gapda Imparfait de l'Indicatif olinib, bosh gapda Conditionnel passé qo'llanadi:

S'il parlait anglais, il aurait aidé à faire cette traduction.

Agar u ingliz tilinida gapirishni bilsa, bu tarjimani qilishda menga yordam bergan bo'lar edi.

Ergash gaplardagi ish-harakat o'tgan zamonga qarashli bo'lganda, bosh gapdagi ish-harakat so'zlanib turgan paytga qarashli bo'ladi, bunda ergash gapda Plus-que-parfait olinib, bosh gapda Conditionnel présent qo'llanadi:

Si vous aviez appris cette poésie, vous la réciteriez à présent.

Agar bu sherni yodlab olgan bo'lsangiz edi, siz uni hozir aytib berar edingiz.

Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarda, har ikkisida ham Conditionnel zamoni ishlatiladi:

Vivrait-il cent ans, il resterait le même.

Conditionnel ning mustaqil gaplarda qo'llanilishi

Conditionnel (présent, passé) quyidagi hollarda qo'llaniladi.

1. Istakni ifodalashda:

Je voudrais voir ce nouveau film.

Men bu yangi filmni ko'rmoqchiman.

2. Iltimos, xushmuomalalik, buyruq, maslahat, ta'na, va mayinlikni ifodalashda:

Pourriez-vous me montrer cette revue?

Iltimos, bu jurnalni menga ko'rsatsangiz.

3. Ish-harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligini taxmin qilishda:

Il est pale. Il serait malade.

Uning rangi o'chgan. U kasal bo'lsa kerak.

4. Undov va so'roq gaplarda Conditionnel man qilinadigan harakatni ifodalaydi:

Aurat-il fait cela? Ce n'est pas possible!

Bu ishni u qilganmishmi? Mumkin emas!

5. Ba'zan Conditionnel tasdiqni ifodalaydi:

Vous devriez les aider.

Siz ularga yordam berishingiz kerak edi.

6. Conditionnel taxmin qilinadigan holatni *on dirait, on eut dit, on aurait dit* so'zlari orqali ifodalaydi:

Elle rit souvent. On dirait qu'elle est insouciante.

U tez-tez kuladi. Uni beg'am desa bo'ladi.

Si shart bog'lovchisidan keyin zamonlarning qo'llanilishi.

(Emploi des temps après si)

Subordonnée conditionnelle (Shart ergash gap)		Proposition principale (Bosh gap)
Action réelle	Présent de l'Indicatif <i>Si je suis libre,</i>	Futur simple <i>je t'aiderai.</i>
	Passé composé <i>S'il est déjà revenu,</i>	Futur simple <i>il viendra chez nous.</i>
Action éventuelle	Imparfait <i>S'il faisait beau temps,</i>	Conditionnel présent <i>nous ferions cette excursion.</i>
	Plus-que-parfait <i>Si nous les avions vu hier,</i>	Conditionnel passé <i>nous les aurions prévenus.</i>
	Conditionnel passé II-forme <i>Si elle eût pu,</i>	Conditionnel passé II-forme <i>elle fût venue.</i>

Subjonctif mayli

Subjonctif xohish, istak, gumon, ma'nolarini anglatadigan, so'zlovchi shubhalanadigan ish-harakatni, ya'ni noreal harakatni ifodalaydi:

Il veut que tu fasses ce travail.

U bu ishni bajarishingni xohlaydi.

Subjonctif maylida 4 ta zamon bor:

1. Présent du subjonctif
2. Passé du subjonctif
3. Imparfait du subjonctif
4. Plus-parfait du subjonctif

Présent du subjonctif zamonini yasash uchun Present de l'Indicatif ning III shaxs ko'plik formasi olinib, undagi **-ent** qo'shimchasi o'rniga Présent du subjonctif zamonining qo'shimchalarini qo'shiladi.

Présent du subjonctif zamonidagi shaxs-son qo'shimchalari hamma guruh fe'llari uchun bir xil bo'lib, ular quyidagilar:

I shaxs -e -ions

II shaxs -es -iez

III shaxs -e -ent

Demander (I guruh)

que j'demande que nous demandions

que tu demandes que vous demandiez

qu'il demande qu'ils demandent

Batir (II guruh)

que je bâtisse que nous bâtions

que tu bâtisses que vous bâtissiez

que il bâtisse qu'ils bâtissent

Prendre (III guruh)

que je prenne que nous prenions

que tu prennes que vous preniez

qu'il prenne qu'ils prennent

Ba'zi uchinch guruh fe'llari Présent du subjonctif da tuslanganda, umumiy qoidadan mustasno holda, ularning o'zagi o'zgaradi:

Avoir

que j'aie que nous ayons

que tu aies que vous ayez

qu'il ait qu'ils aient

Etre

que je sois que nous soyons

que tu sois que vous soyez

qu'il soit qu'ils soient

Aller

que je aille	que nous aillions
que tu ailles	que vous ailliez
qu'il aille	qu'ils aillent

Faire

que je fasse	que nous fassions
que tu fasses	que vous fassiez
qu'il fasse	qu'ils fassent

Pouvoir

que je puisse	que nous puissions
que tu puisses	que vous puissiez
qu'il puisse	qu'ils puissent

Savoir

que je sache	que nous sachions
que tu saches	que vous sachiez
qu'il sache	qu'ils sachent

Passé du subjonctif murakkab o'tgan zamondir. Ushbu zamonni yasash uchun **avoir** yoki **être** yordamchi fe'li Présent du Subjonctif da olinib, asosiy tuslanuvchi fe'lining Participe passé formasi qo'shishiladi.

Prendre

que j'aie pris	que nous ayons pris
que tu aies pris	que vous ayez pris
qu'il ait pris	qu'ils aient pris
qu'elle ait pris	qu'elles aient pris

Descendre

que je sois descendu(e)	que nous soyons descendu(e)s
que tu sois descendu(e)	que vous soyez descendu(e)s
qu'il soit descendu	qu'ils soient descendus
qu'elle soit descendue	qu'elle soient descendues

Imparfait du subjonctif zamonini yasash uchun Passe simple da tuslangan fe'lining II shaxs birlik formasi olinib, undagi shaxs-son

qo'shimchasi s ni tushirib qoldirib, o'rniga Imparfait du subjonctif zamonining qo'shimchalari qo'shiladi:

I shaxs -sse -ssions

II shaxs -sses -ssiez

III shaxs -t -ssent

Parler

que je parlasse que nous parlussions

que tu parlasses que vous parlassiez

qu'il parlât qu'il parlissent

qu'elle parlât qu'elles parlissent

Plus-parfait du subjonctif murakkab o'tgan zamon bo'lib u **avoir** yoki **être** yordamchi fe'li Imparfait du Subjonctif da olinib, asosiy tuslanuvchi fe'lining Participe passé fornasi qo'shishiladi.

Prendre

que j'eusse pris que nous eussions pris

que tu eusses pris que vous eussiez pris

qu'il eût pris qu'ils eussent pris

qu'elle eût pris qu'elles eussent pris

Descendre

que je fusse descendu(e) que nous fussions descendu(e)s

que tu fusses descendu(e) que vous fussiez descendu(e)s

qu'il fût descendu qu'ils fussent descendus

qu'elle fût descendue qu'elle fussent descendues

Subjonctif ning mustaqil gaplarda qo'llanilishi

Mustaqil gaplarda Subjonctif iltimos, tilak, buyruq, g'azab kabi tuyg'ularni bildirish uchun ishlatiladi.

1. Undov gaplarda Subjonctif tilakni ifodalaydi:

Que la chance l'accompagne! Omad unga yor bo'lsin!

Subjonctif maylidagi **pouvoir** va **venir** fe'llari istakni bildiradi va **que** so'zani ishlatilishini talab qilmaydi.

Puissiez-vous réussir! Muvaffaqiyatga erishing!

Subjonctif maylidagi **pourvu que** (ishqilib) iborasi ham istakni bildirib keladi.

Pourvu que la librairie soit ouverte!

Ishqilib, kitob magazine ochiq bo'lsinda!

2. Subjonctif gaplarda buyruqni yoki III shaxsga binoan biror ish-harakatni bajarishga undashni ifodalaydi. Mazkur forma buyruq maylida bo'lmagan III shaxsda berilayotgan buyruqni bildirish uchun ishlatiladi:

Qu'elle prenne le livre à la bibliothèque!

U kitobni kutubxonadan olsin!

3. Subjonctif undov gaplarda norozilik, taajjubni bildirish uchun ishlatiladi. Odatda uI shaxs birlik formasida qo'llaniladi:

Que j'oublie cela, jamais! Men buni umrbod unitay!

Subjonctif ning ergash gaplarda qo'llanilishi

Subjonctif zamonining ergash gaplarda qo'llanilishi bosh gapdagi kesimga va bosh gapni ergash gapga bog'laydigan bog'lovchiga bog'liqdir.

To'ldiruvchi ergash gaplarda Subjonctif ning que bog'lovchisidan so'ng shlatilishi bosh gapdagi kesimning holatiga bog'liqdir.

1. a). Agar bosh gapda xohish, istak, ta'qiqlash ma'nolarini ifodalovchi quyidagi fe'l yoki shaxssiz iboralar qo'llanilsa: *désirer, avoir envie, vouloir, ordonner, exiger, défendre, demander, permettre, prier*.

b). *dire, écrire, crier, avertir, prétendre*, fe'llari buyruqni ifodalab kelganda.

v). *falloir* fe'lidan hosil bo'lgan shaxssiz ibogalardan so'ng:

Il faut – kerak

Il fallait – kerak edi

Il faudra – kerak bo'ladi

yoki quyidagi shaxssiz ibogalardan so'ng:

Il est désirable – taajjub

Il importe – muhim

Il est nécessaire – zarur

Il convient – kerak

g). Bosh gapda *attendre* fe'li ishlatilsa:

Il attend qu'on lui donne cette permission.

U shu ruxsatni berishlarini kutmoqda.

2. a). Bosh gapda shubha, inkorni ifodalovchi quyidagi fe'llar qo'llanilsa: *douter, hesiter, ignorer, contester*:

Elle doute qu'il fasse beau demain.

U ertaga ob-havoning yaxshi bo'lishiga shubhalanyapti.

b). Bo'lishsiz va so'roq formalarda kelgan *croire, penser, savoir, être sûr, affirmer* kabi fe'llardan so'ng:

Je ne pense pas qu'elle ait fait beaucoup de fautes dans sa dictée.

U o'z diktantida ko'p xato qilgan deb o'ylamayman.

v). Ishonchsizlik, shubhani anglatuvchi quyidagi shaxssiz ibogalardan so'ng:

Il est possible, il se peut – mumkin

Il est douteux, il est incertain – shubhali, gumonli

Il est impossible – mumkin emas, o'rinli emas

Il est possible que nous partions demain.

Biz ertaga ketishimiz mumkin.

g). Il est clair (pavshan), il est vrai (to'g'ri, rost), il est prouvé (isbotlangan) shaxssiz ibogalarining bo'lishsiz yoki so'roq fermalaridan so'ng:

Il n'est pas prouvé qu'ils nous aient trompés.

Ular bizni aldagani isbotlanmadi.

3. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapdagi bosh gapning kesimi his-tuyg'u, his-hayajon, sub'ektiv baho kabi ma'noli fe'llar bilan ifodalanganda to'ldiruvchi ergash gapda Subjonctif ishlatiladi.

a). Xursandchilikni ifodalovchi *être content, se réjouir, être heureux, être triste, être mécontent, regretter, être étonné, être surpris* kabi fe'llardan so'ng:

Ils sont contents que vous soyez venus.

Sizning kelganligingizdan ular xursand.

b). *avoir peur, craindre, trembler, prendre garde* fe'llardan so'ng:

La mère a peur que sa fille ne tombe malade.

Onasi qizim kasal bo'lib qolmasin deb xavotirda.

v). So'zlovchining biror harakatga bo'lgan munosabatini ifodalovchi fe'llardan so'ng:

trouver bon – yaxshi deb hisoblamoq

trouver mauvais – yomon deb hisoblamoq

préférer, aimer mieux – afzal ko'rmoq

Je préfère que nous fassions cette excursion ce dimanche.

Men bu ekskursiyani yakshanba kuni o'tkazsak ma'qul bo'ladi deb o'ylayman.

Fe'lning aniqlik va majhullik nisbatlari (Forme active et forme passive du verbe)

Fe'llarning aniq nisbati fe'l orqali ifodalanayotgan ish-harakat gapning ersi orqali bajarilishini ko'rsatadi.

Il nous aidera volontiers.

Elle est partie avant-hier.

Fe'llar o'timli yoki o'timsizligidan qat'iy nazar har qanday zamonda ham aniq nisbatda ishlatilishi mumkin.

Agar gapda ega harakatni vujudga keltirmasa, balki harakat to'ldiruvchi tomonidan bajarilsa, u holda fe'l majhul nisbatda ishlatilgan bo'ladi.

Majhul nisbat **être** fe'lining har qanday zamon va mayldagi formasi va tuslanayotgan fe'lning Participe passé formasi orqali yasaladi. Aniqlik nisbati majhullik nisbatiga o'tayotganda vositasiz to'ldiruvchi ega bo'lib keladi. Participe passé gapdagi ega bilan shaxs va sonda moslashadi. Majhul nisbatdagi zamon etre fe'lining zamon formasi bilan belgilanadi.

Ish-harakatning agenti gapning ikkinchi darajali bo'lagi (fe'lning to'ldiruvchisi) bo'lib keladi. Gapdagi murakkab fe'l-kesimda faqatgina infinitive majhul nisbatda olinadi.

Majhul nisbatdagi fe'lning to'ldiruvchisi gapga odatda **par** predlogi orqali keritiladi.

Aniq nisbat: Ta soeur doit lire ce texte.

Majhul nisbat: Ce texte doit etre lu par ta soeur.

Fransuz tilidagi avoir va pouvoir fe'llari majhul nisbatga ega emas.

Shuningdek, majhul nisbatdagi fe'l to'ldiruvchisi **de** predlogi bilan ham kiritilishi mumkin. Bunda **de** predlogi quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. His-hayajon bildiradigan quyidagi fe'llardan so'ng: *être aimé de, être estimé de, être detesté de, être respecté de*, etc.

Cette fillette est aimée de ses amies.

2. Agar gapdagi vositali to'ldiruvchi ish-harakatning bevosita manbai hisoblanmasa, balki o'zga bir manbaga tobe bo'lsa:

La rue sera plantée d'arbres.

Aniq nisbatda ega **on** noaniq o'zlik olmoshi bilan ifodalangan bo'lsa, bunday gaplarning majhul nisbatda to'ldiruvchisi bolmaydi.

On a écrit l'article. Maqolani yozishdi.

L'article a été écrit. Maqola yozildi.

***Faire va laisser* nisbat ko'makchi fe'llari**

Faire va *laisser* ko'makchi fe'llari gapdagi ish-harakat to'ldiruvchi tomonidan bajarilayotganligini anglatadi. Ular gapda fe'l bilan birikib murakkab fe'l-kesimni hosil qiladi. Bunday gaplardagi ega ish-harakatni bajarishga undaydi xolos.

Le professeur fait travailler ses élèves.

O'qituvchi o'quvchilarini ishlatyapti.

Elle fait traduire ce texte à ces étudiants.

U bu tekstni studenlarga tarjima qildiriyapti.

On m'a laissé partir.

Ketishimga puxsat etishdi.

Fe'lning shaxssiz formalari

(Formes non personnelles du verbe)

Fransuz tilida fe'lning 3 xil shaxssiz formasi bor: infinitiv (Infinitif), sifatdosh (Participe) va ravishdosh (Gerondif).

Fe'lning shaxssiz formalari ish-harakatni anglatadi va fe'lga xos zamon hamda nisbat grammatik kategoriyalariga ega bo'ladi.

Lekin ularning fe'ldan farqlab turadigan va boshqa so'z turkumlariga yaqinlashadigan ayrim belgilari ham mavjuddir.

Infinitiv otga xos bo'lgan ayrim xususiyatlarga, sifatdosha sifatga xos bo'lgan belgilarga, ravishdosha esa ravishga xos bo'lgan ayrim xususiyatlarga egadir.

Infinitif

Infinitiv shaxs va sonni ko'rsatmay, faqat ish-harakatning nomini ko'rdatuvchi fe'l formasidir. Fransuz tilida infinitiv 2 xil zamon formasiga egadir: hozirgi zamon infinitivi (Infinitif présent) va o'tgan zamon infinitivi (Infinitif passé).

Infinitif présent zodda zamon bo'lib, uquyidagi qo'shimchalar orqali namoyon bo'ladi: **-er, -ir, -re, -oir**.

Masalan: *chanter, finir, traduire, recevoir*.

Hozirgi zamon infinitivi (Infinitif présent) gapdagi boshqa ish-harakat bilan bir vaqtda sodir bo'ladigan ish-harakatni anglatadi.

Il parle d'aller en France pendant les vacances.

Infinitif passé murakkab formaga ega bo'lib, u avoir yoki être ko'makchi fe'li Infinitif présent da olinib, asosiy tuslanuvchi fe'lning o'tgan zamon sifatdoshi ya'ni Participe passé formasini qo'shish bilan yasaladi.

Masalan :	<i>avoir fait</i>	<i>être sorti</i>
	<i>avoir choisi</i>	<i>être venu</i>

O'tgan zamon infinitivi (Infinitif passé) gapda boshqa ish-harakatdan oldin yuz beradigan ish-harakatni anglatadi.

Antoine semblait n'avoir pas entendu.

Agar olmoshli fe'lning hozirgi yoki o'tgan zamon formalari gapda tuslanuvchi fe'l bilan qo'llansa, se o'zlik olmoshi eganing shaxs va sonoga ko'ra o'zgaradi.

Je veux me reposer. Dam olishni xohlayman.

Tu dois te reposer. Sen dam olshing kerak.

Infinitiv bo'lishsiz foemada kelganda **ne pas** inkor yuklamalarining har ikkisi ham infinitive oldida keladi.

Je pense de ne pas y rester longtemps.

Infinitivning ba'zi fe'llar bilan qo'llanilishi

1. Infinitiv *falloir, pouvoir, devoir, savoir, vouloir* va boshqa modal fe'llar bilan qo'llanadi: *Il sait jouer du piano.*

2. **Avoir** yoki **être** fe'llari infinitivga à predlogi orqali bog'lanib kelganda o'zbek tiliga “shart”, “loyiq”, “arzirli” so'zlari bilan tarjima qilinadi:

Ils ont à traduire cet exercice.

Ular bu mashqni tarjima qilishlari shart.

3. **Faire** va **laisser** fe'llari infinitiv bilan birga ishlatilganda ular o'zlarining asosiy ma'nosini yo'qotib, **faire** fe'li ish-harakatning bajarilishiga undashni, **laisser** fe'li esa imkon bermoq ma'nosini ifodalaydi.

Le bruit m'a fait tressaillir. Shovqin meni titratib yubordi.

Il faut les laisser partir. Ularni jo'nashiga imkon bermoq lozim.

Faire va **laisser** fe'llari infinitive bilan birga so'z birikmalarini hosil qiladi.

faire entrer	-kiritmoq
faire voir	-ko'rsatmoq
faire faire	-buyurtirmoq
faire rire	-kuldirmoq
se faire entendre	-eshitilmoq
laisser entrer	-kirishga imkon bermoq
laisser passer	-o'tkazib yubormoq
laisser tomber	-tushurib yubormoq

4. *Finir, achever, terminer, cesser de, se mettre à, commencer par, finir par* fe'llari infinitiv bilan birikadi va ish-harakatning boshlanishi yoki tugashini anglatib, qo'shma fe'l-kesimni tashkil etadi:

Nous nous sommes mis à étudier le français.

Biz fransuz tilini o'rganishga kirishdik.

Infinitivning ot vazifasida qo'llanilishi

Fransuz tilida infinitiv otga xos xususiyatlarga ega bo'lib u gapda ot funksiyasini bajara oladi.

1. Gapda ega bo'lib keladi:

Se taire c'est consentir. Sukut-rozilik alomatidir.

2. Ot-kesim bo'lib keladi:

Paraitre n'est pas être. Ko'rinish ishtirok etish degan gap emas.

3. Vositasiz to'ldiruvchi bo'lib keladi:

Elle pense partir. U jo'nab ketishni mo'ljallab turibdi.

Nous apprenons à compter. Biz sanashni o'rganyapmiz.

4. Vositali to'ldiruvchi bo'lib keladi:

Nous cherchons à le comprendre. Biz uni tushunishga harakat qilyapmiz.

5. Gapda hol vazifasida keladi:

a) ravish holi:

Il criait à perdre la voix. U ovozi chiqmay qolgunga qadar qichqirar edi.

b) maqsad holi:

Il parlait haut pour être entendu par tous. U hamma eshitsin deb baland ovoz bilan gapirardi.

d) sabab holi:

Il n'a pas répondu pour avoir manqué la veille. U o'sha mahal bo'lmaganligi uchun javob bermadi.

e) shart holi:

A le voir, on se sent heureux. Uni ko'rishi bilanoq xursand bo'lib ketishadi.

6. Aniqlovchi bo'lib keladi:

Le plaisir d'apprendre. O'rganishdan zavq olish.

Infinitiv sifat, olmosh va shaxssiz fe'l qurilmalarining to'ldiruvchisi bo'lib keladi:

C'est une question difficile à répondre.

Javob berish qiyin bo'lgan savol.

Nous n'avons qu'un but, celui de vaincre.

Maqsadimiz bitta – uham bo'lsa engish.

C'est nécessaire de répondre.

Javob berilishi shart.

Participe (Sifatdosh)

Sifatdosh fe'lining shaxssiz formasi bo'lishi bilan birga, u sifat vafe'lga xos belgilarga ham ega. Uning asosiy funksiyasi orni aniqlab kelishdir. Fransuz tilida sifatfoshning quyidagi formalari mavjud:

1. Participe présent (hozirgi zamon sifardoshi):
chantant – kuylayotgan, ashula aytayotgan;
2. Participe passé (o'tgan zamon sifardoshi):
lu – o'qilgan; appris – o'rganilgan;
3. Participe passé composé (murakkab o'tgan zamon sifardoshi):
ayant vu – ko'rib; s'étant levé – o'rindan turib;

Participe présent (hozirgi zamon sifardoshi)

Participe présent ni yasash uchun har uchala guruhga mansub fe'llarning Présent de l'Indicatif dagi I shaxs ko'pligi olinib, undagi **-ons** shaxs-son qo'shimchasi o'rniga **-ant** qo'shimchasi qo'shiladi.

fermons – ferm**ant**

applaudissons – applaudiss**ant**

apprenons – appren**ant**

avoir, être va savoir fe'llari esa alohida formaga ega: *ayant, étant, sachant*.

Participe présent o'zgarmaydigan so'z turkumi bo'lib, u shaxs va sonda aniqlanmish-ot bilan moslashmaydi:

J'écoute les oiseaux chantant dans le bois.

Men o'rmonda sayrayotgan qushlar ovozi eshityapman.

Participe passé (o'tgan zamon sifardoshi)

Participe passé ning yasalishi fe'llarning tuslanish jihatdanguruhlarga bo'linishiga bog'liqdir. I-guruh fe'llarida Participe passé fe'l o'zagiga **–é** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: rester – resté, chanter – chanté.

II-guruh fe'llarida Participe passé fe'l o'zagiga **–i** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: choisir – choisi, battre – battu.

III-guruh fe'llarining Participe passé formasi quyidagi qo'shimchalarga ega: **-i, -u, -s, -é, -t** (sortir – sorti, recevoir – reçu, prendre – pris, aller – allé, faire - fait).

III-guruh fe'llarining Participe passé formasini yodlab olish zarur.

Participe passé (o'tgan zamon sifardoshi) ning qo'llanilishi va gapdagi o'rni

1. Ko'makchi fe'lsiz ishlatiladi.

2. **avoir** yoki **être** ko'makchi fe'llari bilan ishlatilib muraqqab zamon hosil qiladi.

Participe passé ko'makchi fe'lsiz qo'llanganda sifat xususiyatlariga ega bo'ladi va o'zi bog'lanib kelayotgan otning rod va soniga ko'ra moslashadi. Shuningdek, u sifat kabi bir xil vazifalarni bajaradi.

a). *La lettre écrite. Yozilgan xat.* (Complément attributif)

b). *Ce village semble inhabité. Bu inson yashamayotgan qishloqqa o'xshaydi.* (Attribut du sujet)

d). *Il a trouvé les fautes corrigées. U xatolarni tuzatilgan deb hisobladi.* (Attribut de l'objet direct)

Participe passé ko'makchi fe'lsiz ishlatilganda o'timli fe'llarning o'tgan zamon sifardoshi majhullik nisbatida qo'llanilada:

Le pays libéré. Ozod qilingan mamlakat.

Participe passé ko'makchi fe'lsiz ishlatilganda o'timsiz fe'llarning o'tgan zamon sifardoshi aniq nisbatida qo'llanilada:

L'homme venu de Paris. Parijdan kelgan kishi.

expte, suppose, passe, compris, (y compris), non compris, conclus, ci-joint, attendu, vu kabi o'tgan zamon sifardoshlari o'zaro bog'lanib kelayotgan ot oldoda qo'llansa, gapda predlog vazifasini bajaradi va ular o'zgarmaydi:

Elle a tout recopié, expte ces mots. Bu so'zlardan tashqari u hammasini ko'chirib oldi.

Agar bi sifatlar otdan so'ng kelsa, u holda ot bilan rod va sonda moslashadilar:

Il reviendra une semaine passée. U bir haftadan keyin qaytib keladi.

Muraqkkab zamonlarda Participe passé ning moslashuvi

I. **Avoir** ko'makchi fe'li bilan tuslangan fe'llar Participe passé sining moslashuvi.

1. **avoir** ko'makchi fe'li bilan tuslanuvchi fe'llarning Participe passé formasi gapda ega bilan rod va sonda moslashmaydi:

Nous avons écrit une lettre.

2. Ammo gapning vositasiz to'ldiruvchisi **avoir** ko'makchi fe'li bilan tuslanuvchi fe'lning Participe passé formasidan oldin kelsa, u shu vositasiz to'ldiruvchining rod va soniga qarab o'zaro moslashadi:

J'ai répété les règles que nous avons apprises.

II. **Être** ko'makchi fe'li bilan tuslangan fe'llar Participe passé sining moslashuvi.

1. **Être** ko'makchi fe'li bilan tuslanuvchi 12 ta o'timsiz fe'l: *aller, venir (revenir), arriver, partir, entrer (rentrer), sortir, monter, descendre, naître, mourir, tomber, rester* va ulardan hosil bo'lgan fe'llarning Participe passé formasi gapda ega bilan rod va sonda o'zaro moslashadi:

Nous sommes montés dans l'autobus.

2. Majhul nisbatda qo'llangan barcha fe'llarning Participe passé formasi gapning egasi bilan moslashadi:

Cette lettre est écrite par mon ami.

3. Barcha olmoshli fe'llarning Participe passé formasi gapning egasi bilan yoki vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelgan olmosh bilan rod va sonda o'zaro moslashadi:

Elles s'en sont allées tôt.

Participe passé composé (murakkab o'tgan zamon sifardoshi)

Murakkab o'tgan zamon sifardoshi (Participe passé composé) ni yasash uchun **avoir** yoki **être** yordamchi fe'llarining Participe présent formasiga asosiy tuslanuvchi fe'lning Participe passé formasi qo'shiladi: *fermer – ayant fermé*

venir – étant venu

Participe passé composé aniq (ayant lu), majhul (ayant été traduit) va o'zlik (s'étant reposé) nisbat formalariga ega.

Participe passé composé gapdagi asosiy kesim orqali ifodalangan ish-harakatdan oldin bo'lib o'tgan, tugallangan va har qanday paytga bog'liq ish-harakatni ifodalaydi:

Ayant lu le livre, il le rend (a rendu, rendra) à la bibliothèque.

Gerondif (Ravishdosh)

Gerondif sifatdosh kabi fe'ning shaxssiz formalaridan biri bo'lib, u Participe présent singari hosil qilinadi.

Gerondif shaxsli fe'l idodalagan asosiy harakat bilan bir paytda yuz beradigan harakatni ko'rsatadi. Gerondif oldidan **en** yuklamasi qo'yiladi, ba'zan bu yuklama tushurib qoldirilishi ham mumkin. *Avoir, être, devoir, pouvoir, savoir* kabi fe'llar oldidan ushbu yuklama umuman ishlatilmaydi: *avoir - ayant,*

être - étant,

devoir - devant,

pouvoir - pouvant,

savoir - sachant.

Gerondif o'zgarmaydigan soz turkumi bo'lib, vositasiz yoki vositali to'ldiruvchi hamda hol vazifasidagi so'zlar bilan birga qo'llanilishi mumkin:

Il a traduit le texte en consultant le dictionnaire.

En descendant à l'hôtel, il loue une chambre à un lit.

Gerondif asosan harakatning fe'l-kesim bilan bir paytda bajarilganligini ifodalaydi va o'zbek tilidagi ravishdoshga to'g'ri keladi.

Il gesticule (a gesticulé, gesticulait, gesticulera) en parlant français.

Glossariy

Le verbe	- fe'l
La personne	- shaxs
Le nombre	- son
Le mode	- mayl
Le temps	- zamon
La voix	- nisbat
Voix active	- aniq nisbat
Voix passif	- majhul nisbat
Voix pronominale	- o'zlik nisbat
Formes personnelles	- shaxsli formalari
Formes non personnelles	- shaxssiz formalari
Les verbes transitifs	- o'timli fe'llar
Les verbes intransitifs	- o'timsiz fe'llar
Forme active du verbe	- fe'lning aniqlik nisbati
Forme passive du verbe	- fe'lning majhullik nisbati
La simultanéité	- baravar yuz berish
L'antériorité	- oldin yuz berish
La postériorité	- keyin yuz berish
Concordance des temps	- zamonlarning moslashuvi
Verbes pronominaux	- olmoshli fe'llar
Catégories grammaticales	- grammatik kategoriyalar
Indicatif	- aniqlik mayli
Impératif	- buyruq mayli
Conditionnel	- shart mayli
Subjonctif	- istak mayli
Présent de l'indicatif	- hozirgi zamon aniq formasi
Passé compose	- murakkab o'tgan zamon
Imparfait de l'indicatif	- o'tgan zamon davom fe'li
Plus-que-parfait	- uzoq o'tgan zamon
Passé simple	- sodda o'tgan zamon
Passé antérieur	- oldin bajarilgan o'tgan zamon formasi
Futur simple	- kelasi zamon

Futur antérieur	- oldin bajariladigan kelasi zamon formasi
Futur dans le passé	- o'tgan zamondagi kelasi zamon
Conditionnel présent	- shart maylining hozirgi zamon formasi
Conditionnel passé	- shart maylining o'tgan zamon formasi
Présent du subjonctif	- istak maylining hozirgi zamoni
Passé du subjonctif	- istak maylining o'tgan zamoni
Imparfait (sub)	- o'tgan zamon davom formasi (istak)
Plus-que-parfait (sub)	- uzoq o'tgan zamoni (istak)
Infinitif	- fe'lining noaniq formasi
Infinitif passé	- murakkab noaniq forma
Participe présent	- hozirgi zamon sifatdoshi
Participe passé	- o'tgan zamon sifatdoshi
Participe passé composé	- murakkab o'tgan zamon sifatdoshi
Gérondif	- ravishdosh
Futur immédiat (proche)	- yaqin kelasi zamon
Futur immédiat dans le passé	- o'tgan zamondagi yaqin kelasi zamon
Passé immédiat (récent)	- yaqin o'tgan zamon

A D A B I Y O T L A R

1. Evelyne Bérard-Chistian Lavenne. Exercices pour l'apprentissage du français. Paris: Les éditions Didier, 1992.
2. V.M. Dellancy, L.P.Andreïtchikova. T. Alikoulov. N.V. Keskla, E.M. Badalyan, E.S.Taïourskaïa, L.A.Joussoupova. Manuel de français. Tachkent: Edition "Ouquitouvtchi", 1976.
3. Е.О.Костецкая, В.А. Кардашевский. Грамматика французского языка. Москва, 1967.
4. M.Arrive, F.Gadet, M.Galmiche. La grammaire d'aujourd'hui. Paris: Librairie Flammarion, 1986.
5. Н.М.Штейнберг. Грамматика французского языка. Часть 1. Ленинград, 1962.
6. Nathalie Blé, Philippe Santinan. Grammaire pour adolescent. Clé International Sejer, 2005.
7. Christiane Descotes – Genon. Marie – Hélène Morsel. Cloude Richou. L'exercisier. L'expression française pour le nouveau intermédiaire. Presses Universitaires de Grenoble, 1997.
8. L.E.Mallina, L.P.Andreïtchékova. Grammaire Française. Tachkent, 1991.
9. Le nouveau Bescherelle. L'art de conjuguer. Dictionnaire de huit mille verbs usuels. Paris: Librairie Hatier, 1966.
10. Н.М.Васильева, А.П.Пицкова. Теоретическая грамматика французского языка. Москва: Высшая школа, 1991.
11. Д.А.Аликулова, Д.А.Журабоева. Француз тили дарслиги. Тошкент: Ўзбекистон, 1999.

Mundarija

1. Fe'l (le verbe).....	5
2. Fe'ning morfologik xarakteristikasi.....	5
3. Fe'ning shaxsli va shaxssiz formalari	6
4. O'timli va o'timsiz fe'llar	7
5. Fe'l guruhlari.....	8
6. I guruh fe'llari.....	8
7. II guruh fe'llari.....	10
8. III guruh fe'llari.....	11
9. Fransuz tili fe'l sistemasining xususiyatlari.....	13
10. Indicatif da zamonlar moslashuvi	15
11. Olmoshli fe'llar	15
12. Fe'ning grammatik kategoriyalari	17
13. Present de l'Indicatif.....	19
14. Mode impératif (buyruq mayli).....	20
15. Passé composé (o'tgan zamon aniq formasi).....	22
16. O'tgan zamon sifatdoshining yasalishi.....	22
17. Imparfait de l'Indicatif (O'tgan zamon davom fe'li).....	23
18. Passé simple (Sodda o'tgan zamon).....	25
19. Passé simple ning qo'llanilishi.....	26
20. Plus-que-parfait de l'Indicatif.....	26
21. Plus-que-parfait ning qo'llanilishi.....	27
22. Passé antérieur (Oldin bajarilgan o'tgan zamon formasi).....	27
23. Futur simple (kelasi zamon).....	28
24. Futur simple ning qo'llanilishi.....	29
25. Futur antérieur (Oldingi kelasi zamon).....	29
26. Futur dans le passé (O'tgan zamondagi kelasi zamon).....	30
27. Temps Immédiats.....	30
28. Mode conditionnel (Shart mayli).....	32
29. Conditionnel ning shartli ish-harakatni ifodalashda qo'llanilishi.....	34
30. Conditionnel ning mustaqil gaplarda qo'llanilishi.....	35
31. Si shart bog'lovchisidan keyin zamonlarning qo'llanilishi.....	36
32. Subjonctif mayli.....	36
33. Subjonctif ning mustaqil gaplarda qo'llanilishi.....	39
34. Subjonctif ning ergash gaplarda qo'llanilishi.....	40
35. Fe'ning aniqlik va majhullik nisbatlari	42
36. <i>Faire</i> va <i>laisser</i> nisbat ko'makchi fe'llari.....	43
37. Fe'ning shaxssiz formalari	43
38. Infinitif.....	44
39. Infinitivning ba'zi fe'llar bilan qo'llanilishi.....	45
40. Infinitivning ot vazifasida qo'llanilishi.....	45
41. Participe (Sifatfosh).....	47
42. Participe présent (hozirgi zamon sifardoshi).....	47

43. Participe passé (o'tgan zamon sifardoshi).....	47
44. Participe passé ning qo'llanilishi va gapdagi o'rni.....	48
45. Muraqqab zamonlarda Participe passé ning moslashuvi.....	49
46. Participe passé composé (murakkab o'tgan zamon sifardoshi).....	49
47. Gerondif (Ravishdosh).....	50
152. Glossariy.....	51
153. Adabiyotlar.....	53
154. Mundarija (sommaire).....	54